

Qonunga ko'ra:

Rasmiy statistika ushbu Qonunning qoidalariga muvofiq davlat statistika organlari va rasmiy statistikaning boshqa tayyorlovchilari tomonidan tayyorlanadigan hamda tarqatiladigan statistika ma'lumotlaridan iboratdir.

Rasmiy statistikaning asosiy prinsiplari bu:

- ☐ mustaqillik;
- ☐ tushunarlilik va shaffoflik;
- ☐ aniqlik va ishonchlilik;
- ☐ beg'arazlik va xolislik;
- ☐ statistik maxfiylik;
- ☐ dolzarblik.

O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi rasmiy statistika sohasida vakolatli davlat organi hisoblanadi.

Davlat statistika organlari rasmiy statistikaning asosiy tayyorlovchilaridir.

Statistika dasturlariga rasmiy statistikani tayyorlovchilar sifatida kiritilgan davlat boshqaruvi organlari rasmiy statistikaning boshqa tayyorlovchilaridir.

Davlat organlari, boshqa tashkilotlar va ularning mansabdor shaxslari **davlat statistika organlarining** ushbu Qonunga muvofiq amalga oshirilayotgan faoliyatiga aralashishga haqli emas.

Qoraqalpog'iston Respublikasining, viloyatlarning va Toshkent shahrining statistika boshqarmalari, tumanlarning (shaharlarning) statistika bo'limlari mahalliy davlat hokimiyati organlaridan mustaqil bo'lib, bevosita **vakolatli davlat organiga** bo'ysunadi.

Davlat statistika organlari:

davlat va xo'jalik boshqaruvi organlaridan, shuningdek boshqa tashkilotlardan statistika dasturlarini bajarish uchun zarur bo'lgan axborotni so'rash hamda olishga;

statistika ma'lumotlarini taqdim etish bilan bog'liq qoidabuzarliklar aniqlangan taqdirda, ularni bartaraf etish haqida ko'rsatmalar berish va statistika ma'lumotlariga tegishli tuzatishlar kiritishga;

statistika hisobotlarini taqdim etish tartibini buzgan mansabdor shaxslarga nisbatan ma'muriy jazo choralari qo'llashga va boshqa huquqlarga ega.

Rasmiy statistikani tayyorlovchilarga individual va boshqa ma'lumotlarni statistika maqsadlarida taqdim etuvchi jismoniy yoki yuridik shaxs **respondentdir**.

Respondentlar:

rasmiy statistikani tayyorlovchilarga ishonchli va to'liq ma'lumotlarni belgilangan tartibda va muddatlarda bepul taqdim etishi;

agar taqdim etilgan ma'lumotlar to'g'ri, dolzarb va to'liq bo'lmasa, rasmiy statistikani tayyorlovchilar tomonidan belgilangan

muddatlarda ma'lumotlarni tuzatishi, yangilashi, to'ldirishi hamda ularga taqdim etishi shart.

Statistika ma'lumotlarini yig'ish usullari **rasmiy statistikani tayyorlovchilar** tomonidan belgilanadi.

Demografik va ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning ayrim yo'nalishlari bo'yicha o'tkaziladigan ro'yxatga olishlarda ishtirok etuvchi **respondentlar** ro'yxatga olish varag'ining shakliga binoan ishonchli individual ma'lumotlarni taqdim etishiga haqli hamda ro'yxatga olishlarni o'tkazish jarayonlariga monelik qilmasligi shart.

Ma'muriy ma'lumotlarni yetkazib beruvchilar va boshqa yuridik shaxslar o'z tasarrufidagi mavjud ma'lumotlarni taqdim etish chog'ida maxfiylik to'g'risidagi qoidalarni vaj qilib ko'rsatishi mumkin emas.

Rasmiy statistikani tayyorlovchilar tasarrufidagi mavjud individual ma'lumotlardan faqat statistika maqsadlarida, jamlanma statistika ma'lumotlarini shakllantirish uchun foydalaniladi.

Rasmiy statistikani tayyorlash uchun yig'iladigan, ishlov beriladigan va saqlanadigan statistika ma'lumotlari, agar ular jismoniy yoki yuridik shaxslarni bevosita yoki bilvosita identifikatsiyalash imkonini bersa hamda ularga taalluqli individual ma'lumotlarni oshkor qilsa, **maxfiy** hisoblanadi.

**O‘zbekiston Respublikasining
Qonuni**

**RASMIY STATISTIKA
TO‘G‘RISIDA**

O‘RQ-707-son, 11.08.2021yil



**HURMATLI
TADBIRKORLAR!**

Statistika sohasiga oid
masalalar bo‘yicha
quyidagi “Ishonch telefon”larga
murojaat qilishingiz
mumkinligini bildiramiz:

MILLIY STATISTIKA QO‘MITASI:

 **11-51**

VILOYAT STATISTIKA BOSHQARMASI:

 **(74) 224-80-01**



**O‘ZBEKISTON UCHUN
HAMMAMIZ
MAS‘ULMIZ!**

Andijon - 2025

**O‘zbekiston Respublikasining
Qonuni**

**RASMIY STATISTIKA
TO‘G‘RISIDA**

O‘RQ-707-son, 11.08.2021yil



**O‘ZBEKISTON UCHUN
HAMMAMIZ
MAS‘ULMIZ!**

Andijon - 2025